



## IJTIMOY TARMOQLAR BIZNING YOSHLARIMIZ UCHUN NEGA JOZIBALI

Abduvali Lutfullayev

“TIQXMMI” milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va  
agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi

Valijon\_007@inbox.ru

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7787588>

### ARTICLE INFO

Received: 21<sup>th</sup> March 2023

Accepted: 30<sup>th</sup> March 2023

Online: 31<sup>th</sup> March 2023

### KEY WORDS

*Ijtimoiy tarmoq, ijtimoiy tarmoq tobeylik, ijtimoiy tarmoq tobeylikning ijobiy va salbiy oqibatlari, uyali telefon.*

### ABSTRACT

*Bugungi axborot maydonida axborotlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilish keng tarqalmoqda. Ijtimoiy tarmoq - bu qiziqishlari o‘xshash yoki oflayn-aloqaga ega bo‘lgan odamlar o‘rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko‘ngilochar (musiq va filmlar) va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platformasi, ijtimoiy tarmoq tobeylikning ijobiy va salbiy oqibatlari haqida.*

**KIRISH.** Bugungi kunga kelib dunyoda turli xil sohalar o'zgarib, taraqqiyot shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Bugungi axborot maydonida kasb-hunar, ilm olish bilan shug'ullanish, o'zaro muloqot va fikr almashinuvida ham yangi yangi o'zgarishlarni his qilayotganni hech kimga sir emas. Bugungi axborot maydonida uyali telefon, ijtimoiy tarmoq orqali muloqot va axborot almashinuvga xizmat qiluvchi Facebook, LinkedIn, Google+, Pinterest, Snapchat, YouTube, Reddit, WhatsApp, Flickr, Weibo, Twitter, Tiktok, Telegram va Instagram kabi ommaviy dasturlar shular jumlasidandir. Bugungi axborot maydonida ilm-fanning yutug'i bo'lmish bu ommaviy dasturlar insonlarning uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilayotgani shubhasiz. Shu bilan birga, bu qilinga kashfiyotlar olis masofadan turib ilm olish, dunyo yangiliklaridan bir zumda xabardor bo'lish va ma'lumotlarni tez hamda oson tarqatish imkonini ham beradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Mamlakatimizda yoshlar turmush tarzining turli aspektlari tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilgan. R.Arzikulov yigit va qizlarda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish muammolarini, F.Jumanova va G.Nazirovalar maktab o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillarini, E.Ibragimov ma'naviy-ruhiy manipulyatsiyaning yoshlar dunyoqarashi va turmush tarziga ta'sirini, Sh.Ismailova yoshlar ijtimoiylashuvida axloqiy qadriyatlarining o'rnini, A. Rasulev va F.Ubaydullayevalar yoshlar o'rtasida ishsizlikning kelib chiqish sabablari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, D.Xudoyberdiyev yoshlar iste'molchilik xulqining o'zgarishi sabablari va oqibatlarini, G.G'affarova va D.Jumanovlar ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'sirini o'rganishgan[4]. Shuningdek, turmush tarzining shakllanishining ijtimoiy-falsafiy, tarixiy muammolari bilan bog'liq masalalar B.Aliyev, G.Navro'zova, Q.Nazarov, H.Salomova, Z.Qodirova, A.Huseynova ilmiy ishlarida tahlil etilgan[5].

### MUHOKAMA.



Bugungi axborot maydonida axborotlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilish keng tarqalmoqda. Ijtimoiy tarmoq - bu qiziqishlari bir-birlariga o'xshash yoki oflayn-aloqaga ega bo'lgan insonlar o'rtasida [so'zlashish](#), tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, hamda, ko'ngilochar (musiqqa, shoular, seriallar va filmlar) va har turdagi ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyev shunday deydi "Albatta, bugungi kunda odamlarni qanday masala va muammolar o'ylantirayotgani, tashvishga solayotganini yaqindan bilishda yordam beradigan ochiq manbalar, axborot tarmoqlari ko'p. Ayniqsa, televideniye, matbuot, Internet hayot nafasini, ta'bir joiz bo'lsa, har bir sohaning "yurak urishi"ni aniq-ravshan his qilishda muhim ahamiyatga ega"[7]. Bugungi axborot maydonida ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlari sanab o'tsak.

1. Bugungi axborot maydonida ma'lumotlarni qidirish tezligi. Ijtimoiy tarmoqlarda inson o'ziga kerakli videoni, musiqani, fikrdoshlarni osongina topishingiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqda ro'yxatdan o'tishda foydalanuvchi o'z ismi va familiyasini, shuningdek boshqa o'ziga tegishli ma'lumotlarini - yoshi, ta'lim muassasasi, aloqa raqamlarini (telefon, electron pochta va boshqalar) taqdim etadi. Ma'lum bir soniya ichida har qanday odamni o'zi haqida ishonchli ma'lumotni ko'rsatgan holda topishga imkon beradi. Bu juda ham qulay - chunki ilgari bolalik do'stlari, tanishlar yoki sinfdoshlarini topish uchun ancha vaqt talab qilinar edi.

2. Bugungi axborot maydonida ma'lumotlarni aloqa va ma'lumot almashish qulayligi. Albatta, har birimizning o'z mobil telefonimiz bor va biz SMS va MMS xabarlarini orqali ma'lumot almashishimiz mumkin. Ammo bu juda ko'p pul mablag'ini talab qiladi. Ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoq orqali yuborish ancha qulaydir. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqdagi akkauntga ega bo'lgan kishi, yon-atrofdagi sodir bo'layotgan barcha voqealardan xabardor, u o'zini qiziqtirgan har qanday insonlarning sahifasiga kirib, fotosuratlarini ko'rishi, tanishishi, yangiliklarga sharh berishi yoki shunchaki suhbatlashishi mumkin. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarning bugungi ustunligi.

3. O'zini qiziqishlar doirasini yaratish. Inson nimani yaxshi ko'rmasin va xohlamasin, u shubhasiz ijtimoiy tarmoqdan o'z fikrdoshlari va sirdoshlarini topadi. Buning uchun ijtimoiy tarmoqda qiziqarli jamoalar va guruhlar mavjud bo'lib, unda siz ma'lum xaridlarni amalga oshirishingiz, reklamalardan foydalanishingiz, biron bir narsani almashtirishingiz va hatto ish topishingiz mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy jihatlari ko'rib chiqsak:

Ko'p vaqtini samarasiz sarflash. Ijtimoiy tarmoqlar kimdir uchun o'z vaqtini "o'ldirish" (be foyda) uchun ajoyib imkoniyatdir, ammo ba'zilar uchun bu shunchaki behuda vaqtini sarflashdir. Axir, bu vaqtini ko'proq foyda bilan sarflash mumkin: do'stlar bilan uchrashish, mazali kechki ovqat tayyorlash yoki o'z-o'zini tarbiyalash, til o'rganish va ilm bilan shug'ullanish.

Haqiqiy dunyodan ajralib qolish. Ijtimoiy tarmoqlarda biz o'zimizni hayotdan farqli ravishda boshqacha tutamiz. Internet-aloqa sohasidagi zamonaviy izlanishlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, ijtimoiy tarmoqlarga tashrif buyuruvchilarning 70 foizi o'z hayotlarini bezab turibdi. Bundan tashqari, haqiqatni o'zgartirish va ijtimoiy tarmoqda boy va muvaffaqiyatli bo'lib namoyon bo'lish qobiliyati ham ko'pchilikni o'ziga jalb qiladi. Natijada, yaratilgan virtual tasvirga shunchalik odatlanib qolish xavfi tug'iladi, shunday qilib aytganda, o'z vaqtida erga qaytish har doim ham mumkin emas.



Shaxsiyatning tanazzulga uchrashi. Bugungi axborot maydoniga gar siz ijtimoiy tarmoqlarning o'ta haddan tashqari faol foydalanuvchilarining ish bajarayotgan nutqlariga e'tibor bersangiz, ularning ko'p suhbatlarining ma'nosizligini, qilayotgan ishlari va oddiy odamlar uchun tushunarsiz so'zlarning mavjudligini, masalan, "yoqtirish", "ishlatish", "lol" yoki alifbodagi harflarning buzib yozilishi (**w**-sh, **c**-ch, **4**-ch **6**-o') hamda har xil iboralarni yozishga odatlanayotgani (himmmmm, a'loooooo, ahaa va boshqalar) savodsizlikdan dalolatdir.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar - bu firibgarlar va yovuz niyatli kishilar niyatlarini amalga oshirish uchun yaxshi qulay faoliyat sohasi. Ko'pchilik yoshlar o'zlari haqidagi eng zo'r ma'lumotlarni batafsil yoritishga, haddan tashqari ko'p video va fotosuratlarini joylashtirishi. Ularga bir kun kelib o'zlariga qarshi ishlatilishi mumkin deb o'ylamaydilar.

Salomatlikka zarar etkazish. Ko'p soat kompyuter va telefonidan foydalanish ko'rishning pasayishiga va jismoniy harakatsizlikka olib kelishi hamda umitqa pog'onalarini qiyshayishiga olib kelishi mumkin.

Mehnat bo'lgan motivatsiyasini yo'qotish. Ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lib qolgan odam undan boshqasini uylamaydi va kam harakat qiladi.

Bugun axborot maydonida ijtimoiy tarmoqlarga tobelik. Milliy ma'naviyatimizga mutloqa begona bo'lgan zararli g'oyalari, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, "chaqirilmagan mehmon" bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va yuragiga kirib kelmoqda[1].

«Ijtimoiy tarmoqlarga tobelik» atamasi yaqinda paydo bo'ldi. Oldinlari umumiy qilib, «Internetga tobelik» deb atalardi. Ammo ijtimoiy tarmoqlar keskin rivojlanib, ta'sir kuchi juda oshdi. "Bugungi kunda paydo bo'lganiga uncha ko'p bo'lmasada, ammo allaqachon "арн уяси" kabi eng gavjum elektron manzillarga aylangan "Ijtimoiy tarmoqlar" yovuz kuchlarning virtual quroliga aylandi. Zero, terrorchilik kayfiyatidagi insonlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borayotgan targ'ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. Jumladan, "Odnoklassniki", "Facebook", "Instagram", "Twitter", TikTop hamda "VKontakte" ijtimoiy tarmoqlarida buzg'unchilik va yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Bunday saytlar kundan kunga ko'payib foydalanuvchilar soni oshmoqda. Shuning uchun ham yoshlarda xabar va ma'lumotlarni tahlil eta olish malakasini hosil qilish zarur"[3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son [qarori](#)da, "ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilyotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga karshi sog'lom dunyokarashni shakllantirish"[2] kerakligi belgilangan.

Bugungi jamiyatda insonda virtual va real hayot o'rtasidagi chegara asta-sekin yo'qola boradi. Uning uchun ijtimoiy tarmoqlardagi tanishlari hayotdagi yaqinlaridan muhim va afzalroq bo'lib qoladi. Ijtimoiy tarmoqda muloqat vaqtida Internet tarmoqdan uzilib qolsa, o'zini qayerga qo'yishni bilmay qoladi. Ijtimoiy tarmoqdagi qandaydir ilonga aylangan ayol haqida hamma narsani biladi, lekin muhim ijtimoiy siyosiy yangiliklardan xabardor emas. Eng yomoni, bu o'zgarishlar insonlarning o'ziga sezilmaydi. Yaqinlari va qiziqishlari o'rtasida jarlik



paydo bo'layotganini payqasa ham, bunda o'zini emas atrofdagilarni ayblaydi va. Meni tushunishmaydi, deydi. Aslida esa, o'zi hayotdan chetlanib borayotgan bo'ladi. Odatda yolg'iz va bekorchi insonlar ijtimoiy tarmoqlarga mukkasidan ketadilar. Lekin bu yolg'izlik ko'p hollarda yuzaki bo'ladi. O'zini past baholaydigan yosh ayol, tengdoshlari bilan chiqisha olmayotgan o'smir, suhbatlashishni jondan ortiq ko'radigan odamlar – mana shular tarmoqlarni gullatayotgan toifalar hisoblanadi. Bora-bora, ular real hayotda ham gaplashish mumkinligini unutib qo'yadilar. Ular uchun virtual suhbatdan azizroq narsa qolmaydi. Hatto yonlariga do'stlari kelib qolsa, tezroq uni jo'natib, yana saytga qaytishga intiladilar. Shu sababli Internetning uzilib qolishi – ular uchun katta fojea! Ular uchun Internetdan tashqaridagi hayot qiziqarli bo'lmay qoladi. Chunki bu yerda «layk» qo'yib bo'lmaydi, yoqmagan odamni «ignor» qila olmaysan. Internet deyarli nazorat qilish va devor bilan o'rab quyib bo'lmaydigan tarmoq. Undagi mavjud axborotlardan to'liq foydalanishni to'la nazorat qilish ham mushkul. Yoshlarni Internetdan foydalanishini cheklash bilan hech qanday muammoni hal qilib bo'lmaydi. Chunki u Internetga kirish uchun baribir imkon topa oladi. Yoshlar barcha mamlakatlarda o'z o'rniga ega bo'lib, turkum xususiyatlarga ega ekanligi ta'kidlanadi va ularning ijtimoiy-demografik guruh sifatida tasniflashda maxsus mezonlarga tayanilishi qayd etilgan. Ushbu mezonlar: yosh chegaralari; ijtimoiy-ruhiy xususiyatlar; ijtimoiy maqom; xulq-atvor; ijtimoiylashuv jarayoni xususiyatlaridan iborat. Yoshlar ijtimoiylashuv jarayonini boshidan kechirayotgan, ma'rifiy, kasbiy, madaniy va boshqa funksiyalarni o'zlashtirayotgan avloddir[6].

Bugungi yoshlarni imkon qadar bush vaqtini ko'proq mashg'ulotlar bilan band qilingki, kompyuter va ijtimoiy tarmoqlarga ruju qo'ygan o'smir undan uzoqlashsin. Turli sport mashg'ulotlari, to'garaklar, musiqa darslari, uy yumushlari bu borada eng yaxshi vosita sifatida foydalansin va hisoblasin.

Prof. Sh.S.Kushakov fikricha, “kompyuter asri yangi dezinformasiyani vujudga keltirdi, ya'ni feykli dezinformasiya. Demak virtual olamda ko'proq yolg'on ma'ulomotlar tarqatish, kishilarni aldash, chalg'itish oson kechmoqda”[8].

Internetning salbiy jihatlari haqida esa quyidagi fikrlarni bildirdilar: yolg'on xabarlarining ko'pligi, ma'lumotlarning to'g'riligi yoki haqqoniyligini aniqlashning qiyinligi, axborot spekulyatsiyasi mavjudligi, odamlarning o'zaro muloqoti davomida ba'zan etika normalarining qo'pol ravishda buzilishi, o'ylamasdan qilingan ayrim harakatlarning orqaga qaytarib bo'lmasligi, qoldirilgan ba'zi noo'rin postlarni o'chirib bo'lmasligi, yomon kuchlarning Internetdan targ'ibot maydoni sifatida foydalanishlari, misol uchun aqidaparastlik g'oyalarining yoshlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itishi, “ko'k kit” kabi o'yinlarning fojiali oqibatlarini, shuningdek, xakerlik xurujlari, shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi, virus va boshqa texnik tahdidlarning mavjudligi.

**XULOSA.** Internetning paydo bo'lishi bilan hayotimizning ko'plab jabhalarida, jumladan, maktablar va oliy ta'lim muassasalaridagi barcha jarayonlar, qolaversa, kundalik maishiy xizmatlar, biznes va menejment, yuridik va konsullik xizmatlarigacha birin-ketin virtual dunyoga ko'cha boshladi. Xorijdagi universitet professorlari talabalarga masofaviy dars berishni ma'qul ko'rib, ayrim ma'ruzalarini “YouTube”ga joylashtiradigan bo'ldi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, «... biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va



milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz». Binobarin, bugungi davr bizdan dunyo miqyosida bo'hton va uydirmalarni tarqatish orqali yoshlarimizni aldab, o'z qarmog'iga ilintirishga intilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy holatlarga hech qanday imkon bermasligimizni talab etmoqda. Zero, yoshlar tarbiyasi va milliy ma'naviyatimizni asrash orqali yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab, o'z xalqiga, yurtiga bo'lgan muhabbatini oshirish har birimizning asosiy vazifamizdir.

Internet rivojlanishi barobarida uning texnik-texnologik imkoniyatlari va auditoriya qamrovi ham oshib bordi. "O'rgimchak to'ri" insonlarning an'anaviy suhbatlashuv shaklini tubdan o'zgartirdi. O'lis masofadan turib nafaqat eshitish, balki ko'rish imkoniyatining yuzaga kelishi bilan virtual suhbatlar keskin ommalashdi. Bugunga kelib nafaqat "bir devor qo'shni"lar, hatto bir oilaning a'zolari ham o'zaro shu tarmoqda "gurunglashmoq"da. Bugungi kunda yoshlarni biz qiladigan nasihat emas biz qiladigan amallar tarbiyalaydi.

#### **TAKLIFLAR:**

1. Maktablarda 5 sinfdan boshlab tahliliy mantiqiy fikrlash tizimi joriy qilish kerak (kursmi yoki to'garakmi)
2. Rituallikni oshirish kerak (tanishuv talablari, odatiy iboralar va axborot almashinuvi tartib qoidalari).

#### **References:**

1. Sh. M.Mirziyoyev insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g'oyamizning poydevoridir T.: "tasvir" nashriyoti-2021. 8 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori
3. A.Тулепов ИШИД фитнаси. – Тошкент: Мовароуннахр, 2015. 90-б
4. Арзикулов Р.У. Соғлом турмуш тарзи асослари. -Тошкент, 2005; Жуманова Ф.У., Назирова Г.К. Мактаб ўқувчиларида соғлом турмуш тарзини ривожлантиришнинг психологик-педагогик омиллари // Academic research in educational sciences, 2021, vol. 2, №6; Ибрагимов Э.Х. Маънавий-руҳий манипуляциянинг ёшлар дунёқарашига таъсири: Фалс.ф. бўйича фалс.д. (PhD) дисс.автореф. - Самарқанд: СамДУ, 2020; Исмаилова Ш.К. Ёшлар ижтимоийлашувида ахлоқий қадриятларнинг ўрни.// Academic research in educational sciences, 2021, №2; Расулев А.Ф., Убайдуллаева Ф.А. Ёшлар ўртасида ишсизликнинг келиб чиқиш сабаблари ва ижтимоий-иқтисодий оқибатлари.\\// Иқтисод ва молия, 2018, №4; Худойбердиев Д. Ёшлар истеъмолчилик хулқи: мазмуни ва шакллари, ўзгариши сабаблари ва оқибатлари.- Қарши: Фан ва таълим, 2021; Ғаффарова Г., Жуманов Д. Ижтимоий тармоқларнинг ёшлар маънавиятига таъсири.// Academic research in educational sciences, 2021, №4.
5. Алиев, Б.Б. Шахс маънавий-ахлоқий тарбияси ҳамиша муҳим.//Oriental renaissance: Innovative, edu-cational, natural and social sciences,2022, vol. 2, №23. - 628-632-б.; Наврўзова Г.Н., Раҳматова Х.Х. Нақшбандия тушунчалари генезиси.- Бухоро: Бухоро, 2010; Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Икки томлик.- Тошкент: Ўзб.файл. миллий жам. нашр, 2019; Саломова Х. Меъёрнинг фалсафий моҳияти ва аҳамияти.- Бухоро:



- Дурдона, 2018; Қодирова З.Р., Каримова З.Г. Миллий қадриятларни таълим тизимида татбиқ этишининг психологик жиҳатлари. - Тошкент: Тафаккур, 2010; Ҳусейнова А.А. Аёлларнинг жамият ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги ўрни // Взгляд в прошлое, 2021, №6.
6. Накашидзе Д. Д. Молодежь как особая социально-возрастная группа в современном обществе // Science Time, 2016. №8. – С. 102.
7. <https://www.terabayt.uz/uz/post/shavkat-mirziyoyev-ijtimoiy-tarmoqlarni-kuzatib-borishini-aytdi>
8. Кушаков Ш.С. Фейковая модел дезинформации как разновидност симулякора // Yoshlarni g'oyaviy tarbiyalashning dolzarb masalalari. Talabalar ongida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materilalari. Samarqand, 2019. – S 19-21.
9. <https://iiv.uz/news/ijtimoiy-tarmoq-undan-siz-qanday-foydalanasiz>